



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

8(2)/2025

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



8(2)/2025

SERIYA: IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Murodov G'.N., Farmonova M.F.	Nazar Eshonqul hikoyalarida bola ruhiyati chizgilari: adabiy va psixologik tahlil	3
Ergasheva F.R.	The art of irony in the works of Jerom. K. Jerom and O. Henry	12
Hamidov A.H.	Alisher Navoiy devonlari debochalarida muallif va Husayn Boyqaro tahriri masalasi	17
Хужахонова М.О.	Поэтика нравственного выбора в прозе Чингиза Айтматова	22
Latifova M.Y.	Erkin o'xshatishlar va ularning mavzuviiy guruhlari (o'zbek adiblari asarlari misolida)	30
Qudratov E.	Iqtibos va uning badiiy san'at sifatidagi ahamiyati	35
Saidov A.A.	Roald Dal asarlarining ijtimoiy tanqid vositasi sifatidagi tahlili	40
Tusmatov Sh.R.	Jahon adabiyotida tibbiyot orqali insoniylik va axloqiy qadriyatlarning aks etishi	46
Абдуллаев М.А.	Литературоведческие исследования о жизни и творчестве Садриддина Айни в контексте узбекско-таджикских литературных связей: XX – начало XXI веков	50
Xolmurodova G.X.	Transsendentalizm adabiyotining AQSH madaniy hayotidagi o'rnini	56
Рахимова Ш.Р.	Травматический опыт и постпамять в романе Колума Маккэнна «И пусть возвращается прекрасный мир»	60
Kodirova S.A.	O'zbek xalq maqollarining o'rganilish tarixi	66
Pardayeva I.M.	“Sadd” timsoli orqali ideal hukmdor obrazini yoritish: Iskandar va Amir Temur kabi adolatparvar shohlar misolida	70
Пулатова С.Ш.	Художественное изображение социальных отношений в антиутопическом романе «Под знаком незаконнорождённых» Владимира Набокова	76
Хужахонова М.О.	Философская антропология, этическая модель, повествовательные стратегии	81
Pardayeva I.M.	Iskandar va Amir Temur obrazlarining siyrat va surat mezonidagi qiyosiy tahlili	88
Jamahmatov K.A.	Turkiy tilda yozilgan tasavvufiy manbalar sintezi (“Sabotul ojizin” asari misolida)	95
Kamalova D.E.	Adabiy tahrir va uning kompozitsiyadagi o'rnini	100
Жўрабоев И.А.	Марказий Осиёда кенг тарқалган тариқатлар тавсифи	105

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING O‘RGANILISH TARIXI

Kodirova Saodat Abduraximovna,
Navoiy davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)
Navoiy shahri, O‘zbekiston
saodat.abduraximovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarining ilmiy tadqiq etilish tarixi, undagi asosiy bosqichlar, tadqiqot yo‘nalishlari va atoqli olimlarning bu sohaga qo‘shgan hissalari batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqsad – o‘zbek va tojik maqolshunosligining hozirgi holatini tahlil qilish uchun uning tarixiy ildizlarini atroflicha o‘rganishdan iborat. Xalq maqollari har qanday millatning ma‘naviy xazinasi, asrlar davomida shakllangan donoligi va turmush tajribasining yorqin ifodasi ekanligi, tilning leksik-semantik qatlamini boyitibgina qolmay, balki milliy tafakkur, qadriyatlar va dunyoqarashni ham o‘zida mujassam eta olishi, o‘zbek xalqining boy ma‘naviy merosining ajralmas qismi bo‘lib, o‘zbek folkloristikasida doimiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelganligi ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: xalq maqollari, folkloristika, tahlil, to‘plash, nashr etish, tasniflash, grammatik, semantik, kognitiv tilshunoslik.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ

Аннотация. В данной статье подробно рассматривается история научного изучения узбекских народных пословиц, их основные этапы, направления исследований и вклад видных учёных в эту область. Целью статьи является детальное изучение её исторических истоков для анализа современного состояния узбекских и таджикских пословиц. Утверждается, что народные пословицы являются духовным достоянием любого народа, ярким выражением мудрости и жизненного опыта, формировавшегося веками, что они не только обогащают лексико-семантический пласт языка, но и воплощают национальное мышление, ценности и мировоззрение, являются неотъемлемой частью богатого духовного наследия узбекского народа и постоянно являются объектом исследования в области узбекского фольклора.

Ключевые слова: народные пословицы, фольклор, анализ, сбор, публикация, классификация, грамматика, семантика, когнитивная лингвистика.

THE HISTORY OF STUDYING UZBEK FOLK PROVERBS

Abstract. This article examines in detail the history of the scientific study of Uzbek folk proverbs, its main stages, research areas and the contributions of prominent scientists to this field. The goal is to study its historical roots in detail in order to analyze the current state of Uzbek and Tajik proverbology. It is stated that folk proverbs are a spiritual treasure of any nation, a vivid expression of wisdom and life experience formed over the centuries, that they not only enrich the lexical-semantic layer of the language, but also embody national thinking, values and worldview, are an integral part of the rich spiritual heritage of the Uzbek people and have been a constant object of research in Uzbek folklore.

Keywords: folk proverbs, folklore, analysis, collection, publication, classification, grammar, semantics, cognitive linguistics.

Kirish. Maqollar xalq ijodining badiiy-falsafiy tafakkurini mujassam etuvchi birliklardan biri sifatida nafaqat folklor, balki adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladigan muhim paremiologik birliklardir. Ularda milliy dunyoqarash, poetikobrazlar, axloqiy konsepsiyalar, vaqt va makon tuyg‘ulari, falsafiy qarashlar, estetik ideallar mujassamlashgan. Shu sababli maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda bir necha nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalq maqollarining to‘planishi juda uzoq tarixga ega. Bunga XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning to‘plovchilik faoliyati va uning «Devonu lug‘otit turk» asari yorqin misol bo‘la oladi. Koshg‘ariy maqollarni keltiribgina qolmay, ularga izohlar ham bergan. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar keltiriladi: ularning aksariyati bugun ham tilimizda ayrim o‘zgarishlar bilan muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar mavjudligini ham ta’kidlash zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq maqol mavjud bo‘libgina qolmay, ular asar g‘oyasini yoritish, personajlarning o‘ziga xosliklarini ifodalashda

ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, Sulaymonqul Rojiiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham adabiyotimiz tarixida e'tiborga loyiq hodisadir [1; b. 113].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Maqollarni o'rganishda lingvistik, folkloristik va madaniy yondashuvlarning har biri ularning mohiyatini turli aspektlardan yoritishga xizmat qiladi. Lingvistik yondashuvlar, jumladan, semantik, struktur, pragmatik, lingvomadaniy va kognitiv tahlillar orqali maqollarning tilshunoslikdagi funksiyalari, mazmuniy qirralari, konseptual asoslari va madaniy kodlari chuqur o'rganiladi. Folkloristik yondashuv esa maqollarni tarixiy, janr va funksional jihatdan tahlil qilib, ularni madaniy xotira va ijtimoiy institut sifatida baholash imkonini beradi. Madaniy-nazariy yondashuvda esa maqollar milliy mentalitet, arxetiplar, xalqona qadriyatlar va madaniy semiosfera bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Mazkur nazariy yondashuvlarning har biri paremiologik birlik sifatidagi maqollarning ma'no, shakl, madaniy va ijtimoiy vazifalarini har tomonlama yoritishga yordam beradi. Zero, maqollarni faqat til birligi emas, balki xalq tafakkuri, estetik ideal va madaniy tafovutlarning ifodasi sifatida talqin qilish, ularning ilmiy o'rganilishida integrativ va kompleks tahlil yondashuvlarining zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek xalq maqollarining to'planishi va qayd etilishi dastlabki bosqichi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). XX asrgacha o'zbek xalq maqollarining to'planishi haqida so'z ketar ekan, ikki shaxsni alohida ta'kidlash zarur. Ulardan biri H.Vamberi bo'lib, uning 1867- yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya lug'atiga folklor va adabiyotning ayrim namunalar qatori 112 o'zbek maqoli kiritilgan, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan [2]. Bu o'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish yo'lidagi eng dastlabki ish edi [1; b. 113]. O'zbek maqollarini to'plagan yana bir xorijlik olim N.P.Ostroumovdir. U o'zbek folklori materiallari asosida bir necha to'plamlar e'lon qildi. Uning e'lon qilgan materiallari orasida mingga yaqin xalq maqollari muhim o'rin tutadi [3]. Lekin u to'plagan va e'lon qilgan materiallar bevosita xalq orasidan yozib olinmagan bo'lib, ikkinchi darajali kishilardan, asosan, rus-tuzem maktablari o'quvchilaridan olingan edi. Shunga qaramay, bu ishlar o'zbek folklori, jumladan, maqollarni to'plash va o'rganishda o'sha davrda dadil bir qadam bo'ldi.

O'zbek xalq maqollarini to'plash va ilmiy muomalaga kiritish borasidagi dastlabki qadamlar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davr jadidchilik harakatining kuchayishi, milliy o'ziga xoslikni anglash va xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan tavsiflanadi. Dastlabki to'plovchilar asosan sharqshunoslar, etnograflar va tilshunoslar bo'lib, ular maqollarga tilning boyligini, xalqning ruhiyatini va turmush tarzini aks ettiruvchi qimmatli material sifatida qarashgan. Bu davrda maqollarga bo'lgan yondashuv ko'proq filologik-etnografik xarakterga ega edi. Maqsad maqollarini yo'qolib ketishining oldini olish, ularni yozib olish va nashr etish orqali saqlab qolish edi. Ilmiy tahlil darajasi hali yuqori emas, lekin ayrim tadqiqotchilar tomonidan maqollarga qisqacha izohlar berish, ularning ma'nolarini ochishga urinishlar kuzatiladi. Masalan, rus sharqshunoslari va mahalliy ziyolilar tomonidan tuzilgan lug'at va to'plamlarda maqollar alohida bo'lim sifatida qayd etila boshlandi. Mazkur davrdagi ishlar asosan maqollarning mavzular bo'yicha birlamchi guruhlanishi, ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini qayd etish bilan cheklangan. O'zbek xalq maqollarining lisoniy xususiyatlariga chuqur e'tibor berilmagan, grammatik yoki semantik tahlillar tizimli ravishda olib borilmagan. Shunga qaramay, bu davrdagi to'plovchilik ishlari keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bazasini yaratib berdi.

Sobiq Ittifoq davridagi kompleks va tizimli tadqiqotlar (XX asr o'rtalari – oxirlari). Sobiq Ittifoq davri o'zbek xalq maqollarini ilmiy tadqiq etish tarixida yangi, yanada chuqur va tizimli bosqichni tashkil etdi. Bu davrda tilshunoslik, folkloristika va adabiyotshunoslik fanida maqollarga bag'ishlangan ko'plab nazariy va amaliy ishlar amalga oshirildi. Tadqiqotchilar maqollarga nafaqat xalq donoligining ifodasi, balki tilning o'ziga xos lisoniy birligi sifatida ham yondasha boshladilar. Folklorshunoslikda maqollar mustaqil janr sifatida tahlil etiladi va ularning janr xususiyatlari: qisqaligi, ma'noning zichligi, poetik strukturasi, og'zaki an'analarga bog'liqligi o'rganiladi. Xususiyatlari: yaqqol ritm va qofiya; antiteza va parallellikka asoslangan tuzilish; bir necha variantda mavjudligi ochib beriladi. Misol: «Boshing osmonga yetsa ham yerga qarab yur» – kamtarlik, ehtiyotkorlikni targ'ib qiluvchi janr namunasi.

To'plash, nashr etish va tasniflash. O'zbek xalq maqollarini to'plash, tartibga solish, jiddiy o'rganish va yaxlit to'plam holida nashr etish ishlari XX asrning 20-yillaridan keyin avj oldi: xalq maqollarini to'plash va o'rganish dastavval kichik-kichik maqol to'plamlarini nashr etishdan boshlandi. Ulardan biri Xorazm materiallari asosida tuzilgan to'plam bo'lib, unda 564 ta maqol alifbo tartibida joylashtirilgan [4]. Ikkinchi to'plamga Farg'ona vodiysi, asosan Qo'qon atroflaridan to'plangan maqollar alifbo tartibida kiritilgan, bu to'plam 711 ta maqolni o'z ichiga olgan [5]. Yuqoridagi to'plamlarni XX asrning 20-yillari birinchi yarmida xalq maqollarini to'plash va nashr etishdagi jiddiy qadam sifatida baholash bilan birga bu ish keyingi yillarda ancha susayganligini, faqat 30- yillarning oxirida ayrim-ayrim to'plamlar yuzaga kela boshlaganligini qayd

etish zarur [6]. R.Abdullayevning fikriga ko'ra, bunday susayishga 30-yillarda o'zbek ziyolilarining ommaviy qatog'on qilinishi asosiy sabab edi. Xalq maqollarini, hozir mavzuvii tasnif deb yuritilayotgan, anglatgan ma'nolariga qarab tartib berishni atoqli olim H.T.Zarifov boshlab berdi [1; b. 44]. O'zbek folklorshunosligining filologik yo'nalishdagi fan sifatida shakllanishi folklor asarlarini yozib olish, to'plash, nashr etish va o'rganishga ulkan hissa qo'shgan alloma, o'zbek folklorshunosligining asoschisi H.Zarifov ilmiy faoliyati bilan bevosita bog'liq [1; b. 46]. O'zbek folklorini to'plash, nashr etish, tadqiq etishga katta hissa qo'shgan olima Z.Husainova 1951- yildan buyon O'zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyasi safida Respublikamizning barcha viloyatlarida, Janubiy Tojikiston va O'shda bo'lib, xalq og'zaki ijodiyotining qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, latifa kabi janrlariga doir matnlarni to'plagan [1; b. 114].

R.Abdullayev mavzuvii tasniflash va to'plash jarayonini quyidagicha tavsiflaydi: "Maqollarni mavzu jihatdan tasnif qilish folklor asarlari nashri amaliyotida ularni hech qanday ko'rsatkichsiz alfavit tartibida berishga nisbatan olg'a tashlangan qadam edi. Shuning uchun ham bu yo'l keyingi yillarda ham izchil davom ettirildiki, xalq maqollarini to'plash, sistemalashtirish, ulardagi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda bunday to'plamlarning ahamiyati g'oyatda katta bo'ldi". Shu asosda R.Abdullayev ko'plab to'plamlarni sanab o'tadi. Shuningdek, bu davrda o'zbek maqollarining yirik hajmli, ilmiy asoslangan to'plamlari yaratildi. Bu to'plamlar maqollarining keng qamrovliligi, ularning variantlarining qayd etilishi va tizimli tasnifi bilan ajralib turdi. Ayniqsa, bu davrda maqollarning mavzuvii, shaklii va lisonii jihatdan tasniflanishiga katta e'tibor berildi. Maqsad mavjud maqollar fondini to'liq qamrab olish va ularni ilmiy tahlil uchun qulay shaklga keltirishdan iborat edi. O'zbek xalq maqollarini alifbo tartibida, so'zlarning boshlanish harflari bo'yicha, shuningdek, ma'nolariga ko'ra guruhlariga ajratish kabi usullar keng qo'llanildi.

Semantik va mavzuvii tahlillar. Bu bosqichda maqollarning ma'no qirralarini ochib berish, ularning ifodalaydigan g'oyalari, xalqning dunyoqarashi, etik-axloqii me'yorlari va ijtimoiy qadriyatlarini o'rganishga katta e'tibor berildi. Maqollarning xalq hayotining turli jabhalari – mehnat, oila, do'stlik, vatanparvarlik, adolat, bilim va boshqa mavzularni qanday aks ettirishi tahlil qilindi. O'zbek xalq maqollarining mavzuvii guruhlariga ajratilishi ularning funksional imkoniyatlarini tushunishga yordam berdi. Masalan, «Oltin olma, duo ol», «Mehnat rohati», «Birlashgan kuch» kabi maqollarning ma'no chuqurligi va kengligi tahlil qilindi.

Grammatik va uslubii tahlillar. Sobiq Ittifoq davri tilshunosligida maqollarning grammatik tuzilishi va uslubii xususiyatlariga alohida e'tibor qaratildi. Maqollarning ixchamligi, ularning sodda, qo'shma yoki murakkab gap shaklida bo'lishi, gap bo'laklarining o'rni va o'zaro aloqasi tadqiq etildi. Maqollar ko'pincha qisqa, aniq va tugal fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lib, ularning sintaktik strukturasi alohida xususiyatga ega. Jumladan, elliptik konstruksiyalar, paralelizm, inversiya kabi sintaktik hodisalarning maqollardagi namoyon bo'lishi tahlil qilindi. O'zbek xalq maqollarining obrazliligi, ulardagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, giperbola, litota kabi tasvirii vositalarning qo'llanilishi, ularning ritmik va ohangdorligi o'rganildi. Maqollarning nutqdagi ifodaviyligini ta'minlovchi fonetik va leksik-stilistik usullar (alliteratsiya, assonans, omonimiya, sinonimiya, antonimiya) tahlil obyektiga aylandi [7; b. 40-46].

Qiyosii-tipologik tahlillar. Bu davrda o'zbek maqollarining boshqa turkii tilli xalqlar, xususan, qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon va boshqa tillardagi maqollar bilan qiyosii-tipologik tahlillari keng olib borildi [8; b. 47]. Bu tahlillar maqollardagi umumii turkii ildizlarni, madanii-tarixii umumiiyliklarni aniqlashga yordam berdi. Shuningdek, rus va boshqa dunyo xalqlari maqollari bilan ham qiyoslar o'tkazilib, umuminsonii qadriyatlarining maqollardagi aksi o'rganildi. Bunday tadqiqotlar maqollarning universal va millii o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi.

Mustaqillik davridagi yangi yondashuvlar va zamonavii tadqiqot yo'nalishlari (XXI asr boshlari). O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ilm-fan, xususan, tilshunoslik va folkloristika sohasida yangi paradigmalar va yondashuvlar shakllandi. Xalq maqollari to'plamlari to'ldirilgan shaklda qayta nashr etildi. Xalq maqollarini tadqiq etishda ham an'anavii metodlar bilan birga, zamonavii ilmiy yo'nalishlar – kognitiv tilshunoslik, pragmatlingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabilar faol qo'llanila boshlandi. Bu davrda maqollarga nafaqat tilning grammatik va semantik birligi sifatida, balki millii tafakkurning, ma'navii qadriyatlarining, ijtimoiy-madaniy kodlarning tashuvchisi sifatida qaraldi [9; b. 512].

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil. Zamonavii tilshunoslikda maqollar inson tafakkurining, dunyoni idrok etish va uni konseptualashtirish jarayonining yorqin ko'rsatkichi sifatida o'rganilmoqda. Bunda maqollardagi konseptual metaforalar, metonimiyalar, obrazlar, freymalar va boshqa kognitiv mexanizmlarning roli tahlil qilinadi. Maqollarning insonning his-tuyg'ulari, tajribalari va bilimlarini aks ettirishi, ular orqali xalqning mentaliteti qanday namoyon bo'lishi o'rganiladi. Masalan, "Bir chumchuqqa qiron kelsa, burni sinadi" maqolidagi tabiat hodisalari orqali inson taqdirini anglash yoki

“Temirni qizig‘ida bos” maqolida vaqt konsepsiyasining metaforik ifodasi kabilar tahlil obyektiga ayflanmoqda.

Pragmatik va funksional tahlil. Maqollarning nutqiy faoliyatdagi o‘rni, ularning kommunikativ aktlardagi vazifalari, alohida nutqiy vaziyatlardagi qo‘llanish xususiyatlariga e‘tibor qaratilmoqda. Maqollarning suhbatdoshni ishonitirish, maslahat berish, tanqid qilish, ogohlantirish, tarbiyalash, yupatish kabi turli pragmatik funksiyalari ochib berilmoqda. Ularning nutqning ekspressivligini oshirishdagi roli, ohang va intonatsiya bilan birgalikda ifodalaydigan ma‘nonozikliklari o‘rganilmoqda. Masalan, “Og‘zi kuygan qatiqni puflab ichadi” maqolining ogohlantirish funksiyasi yoki “Sabr tagi sariq oltin” maqolining tasalli berish funksiyasi tahlil qilinmoqda.

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil. Bu yo‘nalishda maqollarning til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani o‘rganish obyekti sifatida qaraladi. Maqollardagi milliy-madaniy o‘ziga xosliklar, ularning xalqning urf-odatlarini, an‘analari, tarixi va e‘tiqodi bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Maqollar orqali milliy qadriyatlarining avloddan avlodga o‘tishi va til orqali madaniyatning saqlanishi jarayonlari o‘rganilmoqda. Masalan, “Qiz bola mehmon, qirqta uyi bor” maqolidagi o‘zbek xalqining qizlarga bo‘lgan munosabati yoki “Noni butunning oshi butun” maqolidagi nonning muqaddasligi kabilar.

Diaxronik va sinxronik tadqiqotlarning uyg‘unligi. Hozirgi davrda maqollarning nafaqat sinxronik (hozirgi holati) tahlili, balki diaxronik (tarixiy taraqqiyoti) tahliliga ham e‘tibor qaratilmoqda. Maqollarning tarixiy davr davomida o‘zgarishi, yangilarining paydo bo‘lishi va ba‘zilarining iste‘moldan chiqishi jarayonlari o‘rganilmoqda, bu esa maqollarning til va jamiyat o‘zgarishlariga qanday moslashishini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tipologik tahlil. Bu davrda o‘zbek xalq maqollarini qiyosiy tipologik aspektda o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi. P.Bakirov, G.Ergasheva, M.Temirova, R.Majidova, N.Abdullayeva, O.Uralova, F.Bafoyev, D.Mirzayevalarning tadqiqotlari alohida e‘tiborga molik [10].

Xulosa. O‘zbek xalq maqollarining tadqiqot tarixi milliy tilshunoslik va folkloristikaning uzoq yillik taraqqiyot yo‘lini aks ettiradi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi dastlabki to‘plash va qayd etish ishlaridan boshlab, sobiq Ittifoq davridagi kompleks grammatik-semantik va qiyosiy-tipologik tahlillar hamda mustaqillik davridagi kognitiv-pragmatik, lingvomadaniy aspektdagi yangicha yondashuvlarga bo‘lgan bosqichlar o‘zbek maqolshunosligining boy ilmiy merosini shakllantirdi. Bu tadqiqotlar o‘zbek tilining boyligini, uning ifoda imkoniyatlarini, xalqning asrlar davomida to‘plagan donoligi va milliy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini ochishga xizmat qildi. Xalq maqollarining o‘rganilishi davom etayotgan jarayon bo‘lib, zamonaviy tilshunoslikning yangi nazariya va metodlarini qo‘llagan holda bu sohada yana ko‘plab tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Xususan, maqollarning matnshunoslik, diskurs tahlili, sotsiolingvistika va neyrolingvistika kabi fanlar kesishmasidagi tadqiqotlari kelajakdagi izlanishlarning istiqbolli yo‘nalishlaridandir. Demak, maqollar ko‘p ma‘no, madaniy ramz va ijtimoiy kontekstni o‘z ichiga olgan paremiologik birliklardir. Ularning to‘liq tahlili bir yo‘nalishli emas, balki kompleks yondashuv talab etadi. Semantik va struktur tahlil ularning ichki tuzilishini ochsa, lingvomadaniy va kognitiv yondashuvlar milliy tafakkur va konseptual tizimni anglatadi. Shu bois zamonaviy paremiologiya integrativ tahlil usuliga asoslanmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Р. Фольклор материалларини тўплаш ва нашр этиш методикаси. // ЎзДСМИ ҳузуридаги Тармоқ маркази. – Тошкент, 2020. 140 б. –Б. 113.
2. Нурмурадов Ю.Б. История изучения и проблемы научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык. АКД, Тошкент, 1983.
3. Остроумов Н.П. Пословицы и загадки сартов. Этнографические материалы, вып. III, Ташкент, 1985.
4. Ўзбекча оталар сўзи. Тўловчи ва тузувчи Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Хива, 1924.
5. Ўзбек мақоллари. Тўловчи ва тузувчи Шерали Рўзи, М., 1926.
6. Мақоллар ва ҳикматли сўзлар. Тўлаб босмага тайёрловчи Б. Каримов, Тошкент, 1939; Мақоллар ва ҳикматли сўзлар. Тузувчилар Ш.Ризо, Ў.Азимов, Ў.Холматов, Тошкент, 1941.
7. Улугов А. Мақолларнинг бадиий эстетик вазифасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020. – № 4. – Б. 40-46;
8. Маҳмудов Ф. Шакли ўзгартирилган мақоллар таржимаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – №3. – Б. 47.
9. Mirzayev T., Musaqllov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. T., 2019. – 512 b.
10. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разнотелетных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс. докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.